

**TALABALAR AMALIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA FAOLIYATIY
YONDASHUV**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10395936>

Rafikova Dilafruz Kaxxoraliyevna

Farg'ona davlat universiteti, p.f.b.f.d.,(PhD);

Toxtasinov Dilshodjon Erkinjonovich

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish institut Farg'ona filiali katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi vaqtda pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarning amaliy tayyorgarligi yuksak salohiyatli professional pedagogik kadrlar tayyorlash muammosi eng dolzarb masalalardan biriga aylanganligi, «amaliy ta'lim» tushunchasining mazmun-mohiyati, ishlab chiqarish ta'limi, bo'lajak o'qituvchining amaliy tayyorgarligini shakllantirish va takomillashtirish, pedagogik ta'limdagi islohotlar jarayonining tezlashishi, zamонави о'qitish texnologiyalarning paydo bo'lishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan amaliyotda keng foydalanish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: amaliy tayyorgarlik, amaliy ta'lim, ishlab chiqarish ta'limi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik ta'lim tizimi, amaliyot, pedagogic reallik.

АКТИВНЫЙ ПОДХОД В ПОВЫШЕНИИ ПРАКТИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ СТУДЕНТОВ

Рафикова Дилафруз Каҳоралиевна

Ферганский государственный университет, (PhD);

Тохтасинов Диљшоджон Эркинжонович

Старший преподаватель Ферганского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов физического воспитания и спорта

Аннотация: В данной статье практическая подготовка студентов высших учебных заведений в области редактирования стала одним из наиболее актуальных вопросов, содержание понятия «практическое образование», производственное образование, раздел «Такие вопросы, как формирование и совершенствование». освещены практическая компетентность учителя, ускорение процесса реформирования педагогического образования, развитие современных технологий обучения и широкое использование информационно-коммуникационных технологий на практике.

Ключевые слова: производственная практика, практическое обучение, производственное образование, информационно-коммуникационные технологии, система педагогического образования, практика, педагогическая реальность.

ACTIVE APPROACH IN IMPROVING PRACTICAL READINESS OF STUDENTS

Rafikova Dilafruz Kakhraliyevna

Fergana State University, (PhD);

Tokhtasinov Dilshodjon Erkinjonovich

Senior teacher of the Fergana branch of the Institute for retraining and professional development of physical education and sports specialists

Annotation: In this article, the practical training of students in higher education institutions in the field of editing has become one of the most urgent issues, the problem of training highly qualified professional editorial staff, the meaning of the concept of "practical education", production education, Issues such as formation and improvement of the practical competence of the teacher, acceleration of the process of reforms in pedagogical education, development of modern teaching technologies and wide use of information and communication technologies in practice are covered.

Key words: practical training, practical education, production education, information and communication technologies, pedagogical education system, practice, pedagogical reality.

KIRISH

Jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ilm-fan va ta'lim sohasidagi o'zgarishlarni modernizatsiyalash mexanizmlari amaliyatga tatbiq etilmoqda. Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGS), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konvensiyalari, ta'llimning kompetentlik paradigmasiga o'tish, nazariya va amaliyot birligiga ustuvorlik berish, talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalarini didaktik shart-sharoitlarga moslashtirish, dasturiy-metodik ta'minotni rivojlantirish, talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha yirik loyihalarni amaliyatga tizimli tatbiq etishga doir ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim tizimi isloq qilinib, ISCI 88 va ISDEC 97 xalqaro standartlar asosida talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik shart-sharoitlar va zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotlarni tizimli va izchil kompleks joriy etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Natijada samarali ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi kadrlarga bo'lgan obyektiv ehtiyojini hisobga olib, talabalarning amaliy tayyorgarligini pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.[15]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sون “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PQ-5847-sон “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiysi to'g'risida”, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sон “Pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sон “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLLILI

Respublikamizda o'qituvchilar tayyorlashning nazariy-metodologik, metodik jihatlari N.N.Azizxodjayeva, R.H.Djurayev, Sh.Q.Mardonov, N.A.Muslimov, A.R.Xodjaboyev, Sh.S.Sharipov, Sh.S.Shodmonova, N.M.Egamberdiyeva, R.Sh.Berdiquulov, S.T.Turg'unov, Sh.E.Qurbanov, O'.Q.Tolipov, M.A.Yuldashev, A.A.Xalikov, B.B.Abdraimova, F.M.Sadikova, G.E.Karlibayevalar ta'lif jarayonini boshqarish, modernizatsiyalash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari masalalarini tadqiq etgan.

MDH mamlakatlaridan V.I.Baydenko, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, N.F.Radionova, A.K.Markova, V.A.Slastenin, A.V.Xutorskoy, A.A.Xafizovalarning tadqiqot ishlarida bo'lajak o'qituvchilarni amaliy kasbiy tayyorlashning turli aspektlari tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarning olimlari R.Boyasis, T.Hoffmann, R.Kuinn, G.Kulanthaivel, H.Miyakawa, R.Mohan, Dj.Raven, S.Uiddet tadqiqotlarida pedagoglarni kasbiy tayyorlash, kompetentli yondashuv, zamonaviy o'qitish va pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Oliy pedagogik ta'lifni modernizatsiyalash ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sohalardagi dinamik jarayonlar, milliy pedagogik ta'lifning ustuvor modelini shakllantirish, innovatsion ta'lif muhitida muhim yo'naliishlarni yaratish bilan uzviy bog'liq. Pedagogik ta'lifni modernizatsiyalashning hozirgi bosqichida konseptual yondashuvlar tubdan qayta ko'rib chiqilib, o'qituvchilardan qiziqlishi, qobiliyati, iste'dodi, amaliy tayyorgarligini har tomonlama rivojlantirish, ta'lif oluvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning innovatsion metodlari va texnologiyalarini puxta o'zlashtirish va zamon talablari darajasida takomillashtirib borish talab etilmoqda.

“Modernizatsiya” atamasi turli lug'atlar (siyosiy, biznes, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, texnik lug'atlar) da har xil talqin etiladi. Modernizatsiya (moderne - yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, eng yangi, zamonaviy degan ma'nolarni anglatadi) - obyektni

takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'satkichlariga moslashtirishdir.[1;2] "Modernizatsiya" atamasi pedagogik nuqtayi nazardan talqin etilsa, u pedagogika sohasidagi o'zgarish va yangilanishlarni anglatadi. Modernizatsiya hisobiga an'anaviy pedagogik ta'lism zamonaviylashtiriladi. Pedagogik ta'lismi modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy o'qituvchi shaxsining gnoseologik, aksiologik, ijodiy, kommunikativ, axloqiy komponentlarini rivojlantirish taqozo etiladi. O'qituvchilik kasbi mohiyatini tushunishga bo'lgan funksional, malakaviy, kompetentli, aksiologik va antropologik yondashuvlar mavjud.[10;11]

Oliy ta'lism muassasalari talabalarining amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy ta'minoti sifatida ta'lismi tashkil etilishini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi, umuman, oliy ta'lism tizimini va pedagogik ta'lismi rivojlantirishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlarini aks ettiruvchi hujjatlar to'plamiga tayanildi. Talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslarini shakllantirish va pedagogik ta'lism mazmunini zamonaviylashtirishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "Ta'lism to'g'risida"gi asosiy qonunidan tashqari, mamlakatimiz ta'lism tizimi rivojlanishning ustuvorligi, strategiyalari va yo'nalganligini belgilab beruvchi davlat organlarining hujjatlari (konsepsiylar, strategiyalar, rivojlanish dasturlari) dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jarayon komponentining metodologik asoslari o'zida o'qitishga shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, kompetentli, faoliyatli yondashuvlar va pedagogik ta'lismi modernizatsiyalashning huquqiy-me'yoriy ta'minoti, moddiy-texnik baza, o'quv-metodik ta'minot kabi pedagogik shart-sharoitlarni aks ettirdi. Mazmunda talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslar (pedagogik ta'lismi modernizatsiyalash tushunchalarning ilmiy asoslari, pedagogik vaziyatga oid masalalar turlari, ularni tuzish, loyihalash texnologiyalari, yechish mexanizmlari) keltirildi.

Ushbu komponentning metodik qismida talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik vaziyatga oid masalalarni tuzish va yechish, hisobotni tuzish, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari aks etdi. Asosiy talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi o'quv mashg'ulotlar tashkil qilindi. Shuningdek, amaliy komponentda tayyorgarlik shakllari (nazariy, amaliy, mustaqil, individual va jamoaviy); qo'yilgan maqsadga erishish imkonini beruvchi vositalar (mantiqiy fikrlashga doir tahliliy fikrlash, kreativ fikrlash, rasmiy hujjatlar, pedagogik ma'lumotlar); amaliy topshiriqlar (testlar, pedagogik vaziyatga oid masalalar va vazifalar) tizimini, AKT, maxsus kurs va uning dasturi qo'llanildi.

Talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi o'quv mashg'ulotlarida interfaol ma'ruza, refleksiya, pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechish, keys-stadi, "blits-so'rov", "tayanch guruqlar", "mentalit" va

“studes” va amaliy mashg’ulotlar shakllarida muammoli o’qitish, mantiqiy fikrlashga oid metodlardan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Talabaning amaliy tayyorgarligi uning integrativ sifati bo’lib, egallagan amaliy bilimi va ko’nikmalari asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishga tayyorgarligi darajasini xarakterlaydi. Tadqiqot ishida talabalar amaliy tayyorgarligining quyidagi tuzilmaviy komponentlari ko’rsatib o’tildi: motivatsion, kognitiv, faoliyatli.

2. Pedagogik ta’limni zamonaviyashtirish, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni yangilash, raqamlashtirish hamda pedagogik shart-sharoitlar va ta’lim jarayoni komponentlari uzviyigini ta’minalash asosida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari tadqiq etildi.

3. Talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari interfaol ta’lim texnologiyalari (“Smart technology”, “mentalit”, “studes”, keys-stadi) va pedagogik masalalarни loyihalash hamda intellektual texnologiyalarga integrativ moslashtirish asosida takomillashtirildi

4. Talabalarning amaliy tayyorgarligi rivojlanganligini motivatsion, kognitiv, faoliyatli mezonlar asosida tashxislash komponentlari (tahlil, loyihalash, topshiriq, anketa) funksiyalarini integrativ muvofiqlashtirish orqali obyektiv baholash imkoniyatlari ochib berildi.

XULOSA

«Ilmiy bilimlarning boshqa sohalaridagi «amaliyat» tushunchasi orqali ham «amaliy ta’lim» tushunchasini ta’riflash mumkin. Ma’lumki, amaliyat kategoriysi falsafada markaziy o’rinlardan birini egallaydi. Hozirgi zamon sotsiologiyasida ham amaliyotchi konseptsiyasi yuzaga keldi va rivojlanmoqda. Amaliyotchi konseptsiyasi nuqtayi nazaridan qaraganda, individ, eng avvalo, faoliyat jarayonida qo’llaniladigan ko’nikma va malakalarning ma’lum tizimini eltuvchi hisoblanadi. Bu tajriba, ko’nikma va malakalar tizimi, amaliy bilimdir. U birlamchi hisoblanadi va har qanday «nazariy» bilishning zaminini tashkil etadi, ilmiy, falsafiy va axloqiy refleksiyaning asosi bo’lib xizmat qiladi» [9; 129-b.].

Enziklopedik izohli lug’atlarda amaliyotga quyidagicha ta’rif berilgan:

«1) amaliyat — faoliyatning biror sohasidagi usul va ko’nikmalar yig’indisi. Faoliyatning biror sohasida orttirilgan tajriba;

2) amaliyat — ish, mashg’ulot, tajriba, ko’nikma manbai sifatidagi biror sohada bilimlarning qo’llanilishi» [2, 134-145-b].

Bu ta’riflar asosida ta’kidlab o’tish mumkinki, amaliy ta’limning asosiy maqsadi talabalarni amaliy faoliyatga o’rgatishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дидактика производственного обучения. М., 1973.
2. Энциклопедический словарь. -М.: Издательство «Большая российская энциклопедия», 2002. –С.145.
3. Гальперин П.Я. Введение в психологию. М., 1976. –С.235.
4. Лернер.И.Я. Философия дидактики и дидактика как философия. – 1995.
5. Леднев.В.С. Содержание образования: сущность, структура, перспективы. -М.: Высшая школа, 1991.
6. Muslimov.N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Dis. ... pedagogika fan. doktori - Toshkent, 2007.
7. Сластёин.В.А, Исаев.И.Ф, Шиянов.Е.Н. - М.: Издательский центр «Академия», 2011 - 380 с.
8. Вербицкий.А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения: Материалы к четвертому заседанию методологического семинара 16 ноября 2004 г. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
9. Шеремета.П., Канщенко.Г. Ситуационный метод /под ред. О.И.Сидоренко. - 2-е изд. –К.: Центр инноваций, 1999.
10. Рафиқова Д., Азимов У. ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.
11. Рафиқова Д., Азимов У. MODERNIZATION OF EDUCATION AND INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 167-169.
12. Azimov U. A. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA AKSIOLOGIYA //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 13. – С. 201-204.
13. Azimov U. YOSHLARNING DEMOKRATIK ISLOHOTLARGA AKSIOLOGIK MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI TAHLILI //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – С. 195-195.
14. Rafikova D. et al. Preparing to innovative activity: Problem solving //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2789. – №. 1.
15. Yuldasheva N. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari //Scientific-theoretical journal of International education research. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 59-64.
16. Уринов Р. Ё. Специфика англоязычной технической документации в сфере информационных технологий //Science and innovation. International scientific. – Т. 1. – №. 7.
17. Urinov R. Y. IMPROVING PROFESSIONAL COMPETENCES OF ENGLISH LANGUAGE TEACHERS //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 13. – С. 392-396.
18. Nimadovna K. S. ETHNOSPORT AS A METHODOLOGICAL BASIS OF SOCIO-CULTURAL SYSTEMS DEVELOPMENT //JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 1-6.

